



Otaxonova Sevaraxon To'likonova,
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
sevaraxonotaxon@gmail.com

OTA-ONANING BOLAGA MUNOSABATI VA BOLANING HISSIY-EMOTSIONAL XUSUSIYATLARI ORASIDA O'ZARO ALOQADORLIK

Annotatsiya. Mazkur maqolada proyektiv va so'rovnoma metodlari asosida ota-ona va farzand munosabatlari bilan bolaning emotsional-psixologik xususiyatlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik jihatlari o'rganilgan. Ota-ona va bolalarda o'tkazilgan psixologik tadqiqot natijalaridan misollar keltirilgan.

Tayanch tushunchalar: oila, ota-ona va bola munosabatlari, ijtimoiylashuv, xavotirlanish, adovat, simbioz, avtoritar giperijtimoiylashuv.

Аннотация. В данной статье рассматриваются детско-родительские отношения в связи с эмоционально-психологическими особенностями ребенка на основе проективных и анкетных методов. Приведены примеры полученных результатов психологического исследования детей и родителей.

Ключевые слова: семья, детско-родительские отношения, социализация, тревожность, враждебность, симбиоз, авторитарная гиперсоциализация.

Annotation. This article examines the child-parent relationship in connection with the emotional-psychological characteristics of the child on the basis of projective and questionnaire methods. Examples of the obtained results of psychological research of children and parents are given.

Keywords: family, child-parent relationships, socialization, anxiety, hostility, symbiosis, authoritarian hypersocialization.

Kirish. Yangi O'zbekistonning bugungi kundagi fan va taraqqiyoti barcha soha va tarmoqlardagi kabi psixologiya fani yutuqlari hamda psixologik xizmat darajasining yangi pog'onaga ko'tarilishi bilan ham o'zini namoyon etmoqda. Ayniqsa, oila psixologiyasi, oila psixoterapiyasi, psixologik maslahat kabi sohalarini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlarga ehtiyojning tobora ortib borishi, oilaviy munosabatlarni, oilada kamol topayotgan bolaning barkamol shaxs sifatida shakllanib borishida ota-ona ibрати, e'tibori, xulq-atvorini tartibga solishga, ularning samarasini ta'minlashga xizmat qiladi.

Oila, ota-ona va bola munosabatlari kabi ijtimoiylashuv jarayonining muhim institutlari bilan belgilanuvchi ijtimoiy muhit bola shaxsi shakllanishining asosiy manbasidir. Oiladagi

shaxslararo munosabatlarda bola muloqot, ijtimoiy hayotda ishtirok etish, muhabbat va nazorat kabi ehtiyojlarini qanoatlantirib boradi. Bu kabi ehtiyojlarni qondirish imkoniyatining yo'qligi bola ruhiy taraqqiyotida turli og'ishlarni yuzaga keltiruvchi sababga aylanadi.

Oila shunday ijtimoiy voqelikki, unda ijtimoiy xususiyatlar individuallashib boradi. Ota-onaning mehr-muhabbati, oiladagi o'zaro iliq, do'stona munosabatlari bola ruhiyatida yaxshi fazilatlarining shakllanishi va rivojlanishiga xizmat qiladi. Bolaning oilada o'zlashtiruvchi muloqot va o'zaro ta'sir uslubi uning kelgusi hayotidagi xulq-atvor modellarini shakllantiradi.

Oilaviy munosabatlar tizimidagi ota-ona va bola munosabatlari turli mazmunga ega va o'zaro bog'liq

bo'lmish ota-onaning bolaga hamda bolaning ota-onaga munosabatlarini qamrab oladiki, bu o'zaro munosabatlar bolaning hamkorlik va nizoli (frustratsiya) vaziyatlarda qo'llab-quvvatlanganda o'zini tutishga o'rgatadi. Bola atrofida gilarni, ayniqsa, ota-onasini kuzatadi, ularning xatti-harakatlariga taqlid qiladi, ulardan ibrat oladi. Ota-ona bola xatti-harakatlarini, xulq-atvorini ma'qullab yoki muhokama qilib, rag'batlantirib yoki jazolab tarbiyaviy ta'sir o'tkazadi. To'g'ri tashkil etilgan tarbiyaviy ta'sir ostida ijobiy shaxs sifatleri shakllansa, noto'g'ri tarbiya salbiy xususiyatlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Shunday qilib, bolaning ijtimoiy muhit, oila, shaxslararo munosabatlar tizimida o'z o'rniga ega bo'lishi, ijtimoiy munosabatlarga kirisha olishi uchun zarur ijtimoiy ko'nikmalar, xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirishida oiladagi ota-ona va bola munosabatlarining ahamiyati nechog'li muhim ekanligini o'rganish va empirik jihatdan asoslash zarurati mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Maqsad va uni asoslash. Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning ota va onasi bilan o'zaro munosabatlarining psixologik jihatlarini ilmiy tahlil asosida o'rganishni maqsad qildik.

Psixologiyaning turli tarmoqlari, jumladan, yosh davrlari psixologiyasi, rivojlanish psixologiyasi, pedagogik psixologiya, bolalar psixologiyasi, ijtimoiy psixologiyada ota-ona va bola munosabatlarining turli jihatleri keng o'rganilgan.

A.A.Shavirinaning fikricha, ota-ona va bola munosabatlari deganda, ota-onaning farzandiga nisbatan emotsional munosabati, uni idrok etishi va u bilan shaxsiy ota-onalik pozitsiyasini belgilovchi xulq-atvor uslubini tanlash majmuasi, tizimi tushuniladi.¹

Xorij olimlari orasida Z.Freyd, A.Freyd, A.Adler (klassik psixoanaliz), K.Xorni, E.Fromm, E.Erikson (neofreydizm), J.Boulbi, M.Eynsvordlar (bog'liqlik nazariyasi) tomonidan ota-ona va bola munosabatlari muammosi chuqur tahlil etilgan. Z.Freyd ota-ona va bola munosabatlarining o'ziga xos jihatleri to'g'risidagi qarashlarning rivojiga

ulkan hissa qo'shib, o'z nazariyasida bola shaxsi rivojlanishida ona ta'siriga katta ahamiyat bergan. A.Freyd va A.Adler esa bola shaxsi tuzilmasining shakllanishida bola hayotining ilk davridayoq atrofida bo'lgan kishilar muhim ahamiyatga ega ekanliklarini ko'rsatib o'tganlar.

Rus olimlari orasida L.S.Vigotskiy, D.B.Elkonin, D.Baumrind, A.Y.Varga, A.I.Zaxarov, E.O.Smironova, M.V.Sokolovalar ota-ona va bola munosabatlarini ilmiy, amaliy jihatdan o'rganganlar. Mazkur muammoga turli yondashuvlar bo'lishiga qaramay, olimlar bola shaxsi rivojlanishida ota-ona va bola o'zaro ta'sirining muhimligini ta'kidlaydilar. Bola tug'iliboq ijtimoiy hodisalar to'g'risidagi bilimlar manbasi bo'lmish kattalar olami bilan qurshab olinadi. Oilaning asosiy vazifasi bolaning ijtimoiy muloqot, bog'liqlik, emotsional sohaning rivojlanishiga ehtiyojini shakllantirish deb hisoblaydilar. Oilada kattalar va bolalar munosabatlarining emotsional to'yinganligi bola shaxsining emotsional hamda motivatsion sohasini, ularning hayotga munosabatini shakllantirishning asosiy omillaridan biri bo'lib, o'ziga va atrofida gi olamga ishonch uyg'otadi.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. O'zbek olimlari orasida M.G.Davletshin, G'.B.Shoumarov, E.G'.G'oziyev, B.R.Qodirov, V.M.Karimova, Sh.R.Barotov, N.S.Safoyev, Z.T.Nishonova, R.I.Sunnatova, N.A.Sog'inov, N.Salayeva, S.X.Tadjiyeva, G.A.Qurbonova, O'.B.Shamsiyevlar ham ilmiy izlanishlarida oila, oilada shaxslararo munosabatlar, ota-ona va bola munosabatlariga doir masalalarni ko'rib chiqqanlar.

Bizning tadqiqotimizda V.V.Stolin va A.Y.Varga tomonidan ishlab chiqilgan ota-ona munosabati so'rovnomasi va Oila kinetik rasmi (R.F.Belyauskayte) proyektiv testi asosida ota-onaning bolaga munosabati hamda bolaning oiladagi vaziyatda o'zini qanday idrok etishi, hissiy-emotsional holati o'rtasidagi korrelyatsion aloqadorlikni matematik-statistik usullar yordamida o'rganishga harakat qildik.

Tadqiqot jarayonida 231 nafar 4-7 yoshli qishloq va shahar bolalarining "Oila kinetik rasmi" (R.F.Belyauskayte) proyektiv testi asosida oilaviy vaziyatda o'zini qanday idrok etishi, hissiy-emotsional holati hamda 142 nafar ota, 196 nafar onada ota-ona va bola munosabatlarini o'rganishga

¹ Шавырина А.А. Влияние детско-родительских отношений на проявление негативизма и упрямства у детей старшего дошкольного возраста. Автореф. дис. ... канд. психол. наук. Московский городской психолого-педагогический университет. — Москва, 2012.

doir Stolin-Varga so'rovnomasi yordamida ularning farzandlariga qanday munosabatda ekanliklari tashxis etildi. Psixodiagnostika ishlari 2019–2021-yillar davomida amalga oshirilgan.

Oila rasmi metodikasi bo'yicha maktabgacha ta'lim muassasalarida ko'p vaqt olmasligi maqsadida guruhli shaklda, turli bog'cha yoki uyda tarbiyalanuvchi bolalarda esa individual tarzda tashxis olindi.

Ota-onalarning bolalarga munosabatini o'rganishda Stolin-Varga so'rovnomasi individual tartibda olingan. Biroq tashxis jarayonida barcha ota-onaning ishtirok etishini ta'minlash imkoni bo'lmagan. Ayni paytda boshqa davlatda, o'z oilasidan yiroqda (ozodlikdan mahrum etish joylari, ajrashgan, "shar'iy nikoh") bo'lgan ko'pchilik ota-onalar hamda ilmiy tadqiqot o'tkazishning etik qoidalariga rioya qilgan holda sinovda ishtirok etish xohishi bo'lmagan ota-onalarda sinov amalga oshirilmadi. Shuningdek, bir nafar ota va ona avtohalokat tufayli vafot etgan, bir nafar ona jigar serrozi sababli, bir nafar ota esa Rossiyada migrantlik asosida ishlayotgan vaqtida olamdan ko'z yumgan.

Ota-onalarning o'z farzandlariga bo'lgan munosabati kattalarning bolalarga nisbatan turli-tuman hissiyot va xulq-atvor tizimi sifatida tushuniladi. Psixologik nuqtayi nazardan qaralganda, ota-onalarning o'z farzandlariga munosabati bu bolalarga nisbatan o'rnatiladigan pedagogik ijtimoiy ustanovka bo'lib, o'z ichiga ratsionallik, emotsional va xulq-atvor komponentlarini oladi. Bu komponentlar u yoki bu darajada metodikaning asosini tashkil etuvchi so'rovnoma yordamida baholanadi.

A.Y.Varga farzand tarbiyasida qiyinchilik his etuvchi shaxslar ishtirokida izlanishlar olib borib, ota-onaning bola bilan o'zaro munosabatlari sifati va ota-onalik munosabati orasidagi bog'liqlikka o'z e'tiborini qaratgan. Olimaning fikricha, ota-ona va bola o'rtasidagi o'zaro munosabatlar ikki sababga ko'ra buzilishi mumkin: birinchisi, asosan, bola, uning psixologik xususiyatlari va oiladagi xulq-atvori bo'lsa, ikkinchisi ota-ona, ularning xulq-atvori, muomala va farzand tarbiyalash odobidir.²

² Варга А.Я. Структура и типы родительского отношения: Автореф. дис. ...канд. психол. наук. – Москва, 1986. – С.4.

A.Y.Varga va V.V.Stolinning ota-onalarning bolalarga munosabati so'rovnomasi bolalarda namoyon bo'ladigan salbiy xulq xususiyatlarini ota-ona munosabatlari bilan solishtirish va korrelyatsion bog'liqligini o'rganish imkonini beradi.

Ota-ona munosabatlari so'rovnomasi uzoq yillar davomida me'yor doirasida rivojlanib borayotgan bolalar oilasidagi ota-ona munosabatlarini aniqlash maqsadida qo'llab kelinadi. Metodika juda keng izlanish jabhalarini qamrab oladi: bolalarning emotsional kechinmalari, agressiyaning namoyon bo'lishi, nizolashuv, bolaning ichki oilaviy munosabatlar bilan bog'liq u yoki bu ehtiyojlarning mavjudligi, ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatlarning turli tiplari (G.X.Maxortova, 2006; YeV.Tarasova 2008).

So'rovnoma V.V.Stolin rahbarligida A.Y.Varga tomonidan ishlab chiqilgan va 1988-yilda nashr etilgan. Ushbu so'rovnoma Y.Sheffer va R.Bell (1969) tomonidan taklif qilingan ota-ona munosabatlarining dinamik ikki omilli modeliga asoslangan. Bu modelning asosiy omillari – emotsional (mehr/nafrat yoki qabul qilish/qabul qilmaslik) va xulq-atvor (avtonomiya/nazorat) omillaridir.

So'rovnoma nafaqat onalarda, balki otalarda ham tashxis maqsadida qo'llanilgan (T.V.Barmina, 2006; M.O.Udaltsova, 2010; Yu.A.Tokareva, 2012).

Shuningdek, olimlar ushbu so'rovnomadan turli etnik guruhlardagi ota-ona va bola munosabatlarining o'ziga xos jihatlarini tashxis qilish maqsadida ham foydalanganlar (L.A.Andreyeva, 2000; S.Y.Moxova, 2004).

2009–2010-yillarda V.E.Vasilenko bilan Van Yuytszin hamkorlikda 33 nafar Sankt-Peterburg va 33 nafar Chen Du shahri onalarida krossmadaniy farqlarni hisobga olib 2-4 yoshdagi farzandlarining uch yosh inqirozi va ona munosabatlari o'rtasidagi aloqadorlikni o'rganganlar.³

N.Galasyuk va O.V.Mitina (RGNF № 16-06-00991 granti doirasida, 2017) ota-ona munosabatlari so'rovnomasini mental buzilishlarga ega "o'ziga

³ В. Е. Василенко. Проявления кризиса трёх лет в связи с особенностями родительского отношения к ребёнку (кросскультурный аспект). Вестник Санкт Петербургского ГУ., Сер. 12. 2013. Вып.3. – С. 42-51.

xos” bolalarni tarbiyalayotgan oilalar uchun modifikatsiya qilganlar.⁴

O‘zbek olimlaridan N.Salayeva (2002), G.A.Qurbonova (2008), S.X. Tadjiyeva (2009), F.F.Rasulova (2018) ota-ona munosabatlari so‘rovnomasini o‘z tadqiqotlarida qo‘llaganlar.

R.I.Sunnatova 20 yillik izlanishlari davomida V.V.Stolin va A.Y.Varga so‘rovnomasi asosida o‘zining “Ota-onalar va pedagoglarning bolalarga bo‘lgan munosabatlari so‘rovnomasi”ni ishlab chiqqan va 1500 dan ortiq pedagog hamda ota-onalarda sinovdan o‘tkazgan (R.I.Sunnatova, 2008).⁵

Ota-onalarning bolalarga munosabati so‘rovnomasi (V.V.Stolin, A.Y.Varga) bola tarbiyasi va u bilan muloqotda muammolarga duch keluvchi ota-onalarning o‘z farzandiga nisbatan ota-onalik munosabatini aniqlashga xizmat qiladi.

R.S.Nemov tomonidan ayrim atamalarni qo‘llash, olingan natijalarni qayta ishlash va tavsiflashga biroz o‘zgartirishlar kiritilgan.

Metodika 61 ta savoldan iborat bo‘lib, ota-ona munosabatini ifodalovchi 5ta shkalani o‘z ichiga oladi:

1. Bolani qabul qilish/rad etish.
2. Ijtimoiy hamkorlik.
3. Simbioz.
4. Avtoritar giperijtimoiylashuv.
5. Kichik omadsiz.

Oila kinetik rasmi metodikasi bolaning oilaviy vaziyatni subyektiv anglashi, o‘z oila a‘zolarining unga munosabati, u uchun nizo va xavotirlanishni yuzaga keltiruvchi oilaviy munosabat xarakteri, oilaning boshqa a‘zolari bilan o‘zaro munosabatini qanday qabul qilishi, oiladagi o‘z o‘rnini qanday idrok etishi, oilaviy sharoitdagi vaziyatlarda o‘ziga ishonchsizlik, g‘animlik, nizolashuv, xavotir kabi emotsional buzilish sabablarini aniqlash imkoniyatini beruvchi, keng qo‘llaniladigan psixodiagnostik testdir.

Psixologik adabiyotlarda mazkur metodika asoschisi sifatida V.Xyuls (Hulse W., 1951) tilga

⁴ Галасюк И.Н., Митина О.В. Модификация Опросника родительского отношения (А.Я. Варги, В.В. Столина) для семьи, воспитывающей особого ребенка. Клиническая и специальная психология, 2017. Том 6. – № 2. – С. 109-129.

⁵ Р.И. Суннатова, Н.Г.Иргашева, С.Х.Таджиева. Бола тараккиётини психологик ташхис қилиш. –Москва – Тошкент: ИТД “СМИ-АЗИЯ” – “San‘at” журнали нашриёти, 2008. – Б. 156-22.

olinsa-da, uning ildizlari V.Vul’f (Wolff W., 1947), J.Buk (Buck J., 1948) va K.Maxoverlarning (Machover K., 1949) ilmiy amaliyotlari bilan bog‘liqdir. Ushbu projektiv testdan o‘z ilmiy-amaliy tadqiqotlarida xorij va rus olimlaridan J.Di Leo (Di Leo J., 1973), L.Korman (Gorman L., 1964), R.Berns, S.Kaufman (Burns R., Kaufman S., 1972), R.F.Belyauskayte (1983), G.T.Xomentauskas (Chomentauskas G., 1982, 1983, 1984) oiladagi o‘zaro munosabatlar orasidagi bog‘liqlikka e‘tibor qaratganlar.

O‘zbek olimlaridan L.V.Nazirova (2000), N.Salayeva (2002), S.X. Tadjiyeva (2009), O‘B.Shamsiyev (2010), I.I.Raximova (2018), D.I.Ilxamova (2021) va boshqalar ilmiy ishlarida tadqiqot metodlari sifatida qo‘llaganlar.

R.I.Sunnatova, S.X.Tadjiyeva (2008) oila kinetik rasmining R.F.Belyauskayte tomonidan taklif etilgan simptomokomplekslar asosida o‘zlarining miqdoriy baholash tizimini ishlab chiqqanlar.⁶

Oila kinetik rasmi beshta belgilar majmuasidan iborat:

1. Qulay oilaviy vaziyat.
2. Xavotirlanish.
3. Oiladagi kelishmovchilik vaziyati.
4. Oilaviy vaziyatda mukammal emaslik tuyg‘usi.
5. Oilaviy munosabatlarda adovat.

Statistik tahlil jarayonida biz olingan ko‘rsatkichlar to‘g‘ri taqsimlanish qoidalariga mos kelmagani sababli metodikalardagi shkalalarning o‘zaro bog‘liqligi va metodikalararo natijalar aloqadorligini Spirmen korrelyatsiya koeffitsiyenti asosida kuzatdik.

Oila kinetik rasmi bo‘yicha olingan natijalarga ko‘ra (1-jadval), Qulay oilaviy vaziyat shkalasi metodikaning qolgan barcha shkalasi bilan teskari aloqadorlikka ega ekan. Ya‘ni oiladagi qulay vaziyatning yuqori bo‘lishi xavotirlanish ($r = -0,176$; $p < 0,01^{**}$), oiladagi kelishmovchilik ($r = -,593^{**}$; $p < 0,01^{**}$), oilaviy vaziyatda mukammal emaslik tuyg‘usi ($r = -,429^{**}$; $p < 0,01^{**}$), va oilaviy munosabatlarda adovat ($r = -,183^{**}$; $p \leq 0,01$) darajasining tushishiga ta‘sir etadi. Va aksincha, bolaning o‘zini oilada noqulay vaziyatda his etishi

⁶ Р.И. Суннатова, Н.Г.Иргашева, С.Х.Таджиева. Бола тараккиётини психологик ташхис қилиш. – Москва – Тошкент: ИТД “СМИ-АЗИЯ” – “San‘at” журнали нашриёти, 2008. – Б.156-60.

yuqoridagi ko'rsatkichlarning o'sishiga olib keladi. Demak, oiladagi doimiy sog'lom psixologik muhit bola ruhiyatida bexavotirlik, oila a'zolari bilan ahil, inoq munosabatlar, o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholay olish, o'zini qabul qilish, oila a'zolari bilan samimiy, beg'araz, do'stona munosabatlarning shakllanishiga sabab bo'ladi.

Xavotirlanish oiladagi kelishmovchilik vaziyati ($r=,291^{**}$; $**p\leq 0,01$), oilaviy vaziyatda mukammal emaslik tuyg'usi ($r=,169^{**}$; $**p\leq 0,01$), oilaviy munosabatlarda adovat ($r=,250^{**}$; $**p\leq 0,01$) shkalalari bilan musbat bog'lanishdaligi ma'lum bo'ldi. Oiladagi kelishmovchilik vaziyati oilaviy vaziyatda mukammal emaslik ($r=,335^{**}$; $**p\leq 0,01$) oilaviy munosabatlarda adovat ($r=,219^{**}$; $**p\leq 0,01$) shkalalari bilan musbat aloqadorlikka egaligi bitta xususiyatning ortishi qolgan jihatlarning ham ko'payishiga sabab ekanligini bildiradi. Oiladagi kelishmovchilik vaziyati va xavotirlanish darajasining ortishi yoki kamayishi o'zaro hamda bolalarning oila a'zolariga adovati yoki o'ziga past baho berishi bilan mutanosib tarzda ta'sir etishini anglatadi.

1-jadval.

Oila kinetik rasmi proyektiv metodikasi shkalalari orasidagi korrelyatsion aloqa (bolalar javoblari asosida)

Shkala nomlari	Qu-lay-oila-viy vaziyat	Xa-vo-tir-lanish	Oila-dagi kelish-mov-chilik vaziyati	Oilaviy vaziyatda mukam-mal emaslik tuyg'usi	Oilaviy muno-sabat-larda adovat
Qu-lay oilaviy vaziyat	1	-,176 (**)	-,593 (**)	-,429(**)	-,183 (**)
Xavo-tirlanish		1	,291 (**)	,169(**)	,250 (**)
Oiladagi kelish movchilik vaziyati			1	,335(**)	,219 (**)
Oilaviy vaziyatda mukammal emaslik tuyg'usi				1	0,106
Oilaviy munosa batlarda adovat					1

Izoh: $**p\leq 0,01$

Boshqa shkalalardan farqli o'laroq, oilaviy vaziyatlarda mukammal emaslik va oilaviy munosabatlarda adovat darajasi bir-biri bilan hech qanday bog'liqlikka ega bo'lmadi. Bu esa maktabgacha yoshdagi bolaning o'zini qanday his etishi, o'ziga qanday baho berishi oila a'zolariga nisbatan adovatni his etish yoki aksincha, oila a'zolariga nisbatan adovatni his etuvchi bolalarda o'zini mukammal ko'rish yoki ko'rmasligiga bog'liq emasligini bildiradi. Ya'ni boladagi bu jihatlar bir-birining ortishi yoki kamayishiga sabab bo'la olmasligini anglatadi.

Biz yuqorida bolalarda o'tkazilgan tashxis natijalari bilan tanishib, bolalarning oilaviy muhit, undagi o'zaro munosabatlar va o'zlarini oilaviy muhitda qanday idrok etishi, shaxsiy-psixologik xususiyatlari, o'zlarining atrofida gilariga munosabati kabilarning o'zaro aloqadorlik darajasini tahlil qildik.

Endi ota-onalarning bolaga bo'lgan munosabatlari orasida qanday aloqa mavjudligini ko'rib chiqamiz.

Avvalo, Stolin hamda Varganing ota-ona munosabatlari so'rovnomasi bo'yicha otalardan olingan natijalarning o'zaro aloqadorligini ko'rib chiqamiz (2-jadval).

2-jadval.

Ota-ona munosabatlari so'rovnomasi shkalalari orasidagi korrelyatsion aloqa (otalar javoblari asosida)

Shkala nomlari	Qa-bul-qilish / rad-etish (ota)	Ijti-moiy ham-korlik (ota)	Sim-bioz (ona)	Avto-ritar giper-ijtimo-iy-la-shuv (ota)	Kich-ik omad-siz (ota)
Qabul qilish / rad etish (ota)	1	,182(*)	,186(*)	-0,148	-,378 (**)
Ijtimoiy hamkorlik (ota)		1	0,133	,200(*)	0,053
Simbioz (ota)			1	,222 (**)	0,026
Avtoritar giperijti-moiyla-shuv (ota)				1	,226 (**)
Kichik omadsiz (ota)					1

Izoh: $**p\leq 0,01$; $*p\leq 0,05$

Jadvalda aks etganidek, otalarning bolalarni qabul qilish/rad etish munosabati Ijtimoiy hamkorlik ($r=,182(*)$; $*p\leq 0,05$), Simbioz ($r=,186(*)$; $*p\leq 0,05$) munosabatlari bilan ijobiy aloqada bo'lsa, avtoritar giperijtimoiylashuv munosabat bilan hech qanday bog'liqlikka ega emas, bolaga nisbatan kichik omadsizday ($r=-,378(**)$; $**p\leq 0,01$) munosabatda bo'lishi esa salbiy aloqa hosil qilgan.

Ijtimoiy hamkorlik munosabati yuqori bo'lgan otalarda avtoritar nazorat ham yuqori ($r=,200(*)$; $*p\leq 0,05$) ekan.

Avtoritar giperijtimoiylashuvning ijobiy korrelyatsion aloqasi simbiotik ($r=,222(**)$; $**p\leq 0,01$) va kichik omadsiz ($r=,226(**)$; $**p\leq 0,01$) munosabatlarida ham kuzatildi.

Demak, otalar bolalarini qancha yuqori darajada qabul qilsalar, shuncha ko'p ular bilan ijobiy munosabatda bo'ladilar, fikr almashadilar, qiziqishlari, qobiliyatlari, tashabbuslari, mustaqilliklarini qo'llab-quvvatlaydilar, rag'batlantiradilar, reja va ishlariga qiziqadilar, his-tuyg'ulariga xayrixoh, hamdard bo'ladilar. Ular o'z farzandlarini o'zlari bilan teng ko'radilar, qanday bo'lsa shundayligicha qabul qiladilar, farzandlaridan mamnun bo'ladilar, ular bilan faxrlanadilar, muvaffaqiyatlariga, kelajagiga ishonadilar.

Shunday bo'lsa-da, farzandlariga qanday munosabatda bo'lishi ularni nazorat qilishga hech qanday ta'sir ko'rsatmas ekan. Ya'ni otalarning qattiqqo'lligi otalik mehriga bog'liq emas ekan. Biroq otalarning farzandlari bilan ijtimoiy hamkorligi, yakdilligi va kichik omadsizday munosabatda bo'lishi qancha yuqori bo'lsa, avtoritar munosabati ham shuncha ortib borar ekan. Demak, otalarning farzandlariga qattiqqo'llik munosabati bolalarga infantil munosabatda bo'lganliklaridan, ularning qobiliyatiga ishonmasliklaridan, ularning yordamga va nazoratga muhtoj ekanliklarini anglaganlaridan ekan. Otalarning ijtimoiy hamkorligi, ya'ni bola bilan hamkorlikdagi faoliyati, uni doimiy qo'llab-quvvatlashi bolaning yetarli imkoniyatlarga ega emas deb bilishidan ekan.

Farzandlarining kuchiga ishongan, uning qobiliyatlarini yuqori baholaydigan, kelajagiga ishonch bilan qaraydigan, fikrlari, orzu-istaklariga hurmat bilan qaraydigan, mustaqil faoliyatiga

imkon beradigan otalarda ijtimoiy hamkorlik, qattiqqo'llik va simbiotik munosabati ham quyi darajada bo'larkan. Chunki ular farzandlarining biror faoliyatni mustaqil tarzda amalga oshirishlari uchun imkon berishga, u yoki bu ishni uddalay olishlariga ishonishga, ortiqcha nazorat qilmaslikka harakat qiladilar.

Onalardan ushbu so'rovnoma bo'yicha olingan natijalar korrelyatsiyasini tahlil etadigan bo'lsak (3-jadval), ularda ham otalardagi kabi bolani qabul qilish/rad etish ko'rsatkichlari ijtimoiy hamkorlik ($r=,218(**)$; $**p\leq 0,01$) va simbioz, ya'ni o'zini bola bilan yakdil his etish ($r=,257(**)$; $**p\leq 0,01$) bilan musbat aloqa, biroq otalardan farqli o'laroq avtoritar nazorat ham ($r=-,166(*)$; $*p\leq 0,05$) kichik omadsiz munosabati ($r=-,278(**)$; $**p\leq 0,01$) kabi salbiy bog'lanishda ekanligi aniqlandi.

Ijtimoiy hamkorlik ($r=,177(*)$; $*p\leq 0,05$), Simbioz ($r=,210(**)$; $**p\leq 0,01$) va Kichik omadsiz ($r=,280(**)$; $**p\leq 0,01$) shkalalari esa avtoritar giperijtimoiylashuv shkalasi bilan ijobiy munosabatda ekan.

3-jadval.

**Ota-ona munosabatlari so'rovnomasi
shkalalari orasidagi korrelyatsion aloqa
(onalar javoblari asosida)**

Shkala nomlari	Qabul-qilish / rad etish (ona)	Ijtimoiy hamkorlik (ona)	Simbioz (ona)	Avtoritar giperijtimoiylashuv (ona)	Kichik omadsiz (ona)
Qabul qilish / rad etish (ona)	1	,218(**)	,257(**)	-,166(*)	-,278(**)
Ijtimoiy hamkorlik (ona)		1	0,076	,177(*)	0,018
Simbioz (ona)			1	,210(**)	-0,045
Avtoritar giperijtimoiylashuv (ona)				1	,280(**)
Kichik omadsiz (ona)					1

Izoh: $**p\leq 0,01$; $*p\leq 0,05$

Demak, farzandlariga mehr bilan munosabatda bo'lishi, ularni ijobiy qabul qilishi yuqori onalarda

bola bilan hamkorlikdagi faoliyati va u bilan o'zini yakdil his etishi ham yuqori ekan. Ular doim o'z farzandlari yutuqlarini ijobiy baholaydilar, qobiliyatlariga ishonadilar, yumshoqroq, demokratik munosabatda bo'ladilar. Onalarning bolalarni ijobiy qabul qilishi, ular bilan do'stona munosabatda, hamkorlikda bo'lishi, o'zlarini farzandlari bilan bir butun ko'rishi avtoritar nazoratning susayishiga sabab bo'larkan. Bu esa bolaning tarbiyasiga salbiy ta'sir etish xavfini bildiradi. Chunki bolaga ortiqcha onalik mehrini berish uning xulq-atvorini nazorat qilishdan chetlashtiradi. Natijada ortiqcha erkalatilgan bolalarda salbiy ko'rinishdagi xulq-atvor va xarakter xususiyatlari shakllanib qoladi.

Agar onalar o'z farzandlariga salbiy munosabatda bo'lsalar, ularni qabul qilmasalar, rad etsalar, bolalari bilan hamkorlik o'rnatolmaydilar, ularga e'tiborsiz bo'lishlari mumkin. Farzandlarini rad etish darajasi ustun bo'lgan onalarda bolaning muvaffaqiyatlariga ishonmaslik, ularni moslashmagan, salbiy ta'sirga beriluvchan, biror ishni uddalay olmaydigan, omadsiz deb tasavvur qilishi yuqori darajada bo'ladi. Ular o'z farzandlarida ijtimoiy yetuklikni ko'rmaydilar va bu bolada infantillikning shakllanishiga olib keladi. Shu sababli ular bolada nazoratni o'ta kuchaytirib yuboradilar. Bu ham bolaning xulq-atvorida salbiy xususiyatlarning shakllanishiga olib keladi.

Otalardagi kabi onalarning ham farzandlari bilan ijtimoiy hamkorligi, yakdilligi va kichik omadsizday munosabatda bo'lishining yuqori darajasi ularning qattiqqo'lligini ham shuncha oshirib boradi. Onalarning avtoritar munosabati bolalarga infantil munosabatda bo'lish, ularning qobiliyatiga ishonmaslik, ularga yordamga va nazoratga muhtoj deb qarashlari sababli bo'lishi mumkin. Onalardagi ijtimoiy hamkorlik bolani yetarli tajribaga ega emas deb bilishi va unga o'rgatish zarurati sababli bo'lishi mumkin.

Ota-onalarning farzandlariga bo'lgan munosabatlari bilan bolaning ularga munosabati hamda oilaviy vaziyatda hissiy-emotsional jihatlar orasidagi bog'liqliklarni ko'rib chiqamiz.

Otalarning so'rovnomaga bo'yicha natijalari va bolalarning oila rasmi bo'yicha olingan ko'rsatkichlari orasidagi korrelyatsion bog'liqlikni

aniqlash jarayonida quyidagi ma'lumotlarga ega bo'ldik (4-jadval):

4-jadval.

Otalarning bolalarga munosabatlari va bolalarning hissiy-emotsional jihatlar orasidagi korrelyatsion aloqa

Ota-ona munosabatlari so'rovnomasi shkalalari	Oila kinetik rasmi proyektiv testi shkalalari				
	Qulay oilaviy vaziyat	Xavotirlanish	Oiladagi kelishmovchilik vaziyati	Oilaviy vaziyatda mukammal emaslik tuyg'usi	Oilaviy munosabatlarda adovat
Qabul qilish / rad etish (ota)	0,075	0,011	-0,044	0,021	0,121
Ijtimoiy hamkorlik (ota)	-0,124	-0,117	0,039	,198(*)	0,076
Simbioz (ota)	-0,091	-0,01	-0,099	0,078	-0,015
Avtoritar giperijtimoiylashuv (ota)	-0,086	-0,014	-0,086	0,019	0,044
Kichik omadsiz (ota)	-0,159	0,158	0,109	0,086	0,11

Izoh: * $p \leq 0,05$

Otalarning farzandlari bilan ko'proq ijtimoiy hamkorlik munosabatida bo'lishi bolaning oilaviy vaziyatda mukammal emaslik tuyg'usini oshirib yuborishi mumkin ekan ($r = ,198(*)$; $*p \leq 0,05$). Demak, otaning doimiy tarzda farzandini qo'llab-quvvatlashi, unga yordam berishi bolaning o'z kuchi, imkoniyatlariga ishonishi, o'ziga yuqori baho berishiga to'sqinlik qiladi. Bola ayrim masalalarni hal qilishda doimo otasi bilan bamaslahat ish tutishi, o'zining imkoniyatlari, mustaqilligi cheklanganligini his etishga sabab bo'ladi, natijada u o'ziga past baho bera boshlaydi.

Onalarning munosabatlari va bolaning his-tuyg'ulari orasidagi bog'lanish esa kutilmagan manzarani namoyish etmoqda (5-jadval).

Boshqa tadqiqotlar bilan tanishish jarayonida biz odatda avtoritar munosabatning yuqori ekanligi xavotirlanish darajasining ortishiga sabab bo'lishini kuzatganmiz (Illarionova I.V., 2011).⁷

⁷ Илларионова И. В. Исследование проявлений тревожности у детей дошкольного возраста в аспекте детско-родительских отношений. Вестник ЧГПУ им. И. Я. Яковлева. — Челябинск, 2011, — № 3 (71). — С. 100-107.

**Onalarning bolalarga munosabatlari va
bolalarning hissiy-emotsional jihatlarini
orasidagi korrelyatsion aloqa**

Ota-ona munosabat- lari so'rovno- masi shkalalari	Oila kinetik rasmi proyektiv testi shkalalari				
	Qu- lay oila- viy vazi- yat	Xa- vo- tir- la- nish	Oiladagi kelish- movchi- lik vaziyati	Oilaviy vaziyatda mukam- mal emaslik tuyg'usi	Oilaviy muno- sabat- larda adovat
Qabul qilish / rad etish (ona)	0,041	0,03	-0,073	0,05	0,078
Ijtimoiy hamkorlik (ona)	-0,048	-0,025	0,059	0,037	0,088
Simbioz (ona)	-0,042	-0,085	-0,121	0,09	-0,107
Avtoritar giper- ijtimoiy lashuv (ona)	-0,094	-0,153 (*)	0,048	0,053	-0,038
Kichik omadsiz (ona)	-0,161 (*)	0,044	0,115	0,098	0,073

Izoh: * $p \leq 0,05$

Bizning tanlanmada onalarning farzandlariga qattiqqo'lligi bolalarda xavotirlanish darajasining tushishiga sabab bo'lgan ($r = -0,153$ (*); $p \leq 0,05$). Ulardagi avtoritar nazoratning tanqisligi farzandlarida xavotirlanish holatining ortishini yuzaga keltirgan.

Bunga o'xshash natijalarni boshqa olimlarning tadqiqotlari doirasida ham qidirib ko'rdik. Ota-ona va bola munosabatlarining katta maktabgacha yoshdagi bolalarning tengdoshlari bilan o'zaro munosabatlariga ta'sirini o'rgangan tadqiqotchilar ishlarida (Zavgorodnyaya T.V., 2018) ham shu kabi holatni kuzatdik. Garchi tanlangan metodikalar boshqa bo'lsa ham, ammo ota-onalarda zarur qattiqqo'llik, taqiq, sanksiyalar yetishmasligi ham bolalarda turli darajadagi xavotirni yuzaga keltirganki, bu ularning tengqurlararo munosabatlariga o'z ta'sirini ko'rsatgan.⁸

Demak, bizning respondentlardan olingan avtoritar nazorat va xavotirlanish orasidagi teskari korrelyatsiya kutilmagan bo'lsa-da, ajablanarli hodisa emas.

Onalarning farzandlari xulq-atvoriga nazoratsizligi bolalarda onaning e'tiborsizligi bilan bog'liq xavotirni yuzaga keltirgan bo'lishi mumkin.

Keyingi teskari korrelyatsion bog'liqlikni ko'rib ($r = -0,161$ (*); $p \leq 0,05$), onalarning bolalarga kichik omadsizdek munosabatda bo'lishlari ularning oilada o'zlarini noqulay his etishlariga sabab bo'lishini aytish mumkin. Bundan onalar bolaning muvaffaqiyatlariga, qobiliyatlariga qancha yuqori darajada ishonch bildirsalar, unga shaxsday munosabatda bo'lsalar, bolalar shunchalik o'zlarini oilada qulay va yaxshi his etadilar deb mulohaza qila olamiz.

Onalarning bola qobiliyatlari, ustunliklari va kamchiliklariga muvaffaqiyat va omadsizliklariga qanday munosabatda ekanligi uning oilada o'zini qanday his etishi mumkinligini bildiradi. Bolaning omadsizliklariga munosabat bo'yicha olingan yuqori ballar sinaluvchi uchun bolaning qiziqishlari, havaslari, fikr va tuyg'ulari jiddiy emasdek tuyulishini, bu esa farzandining o'zini oilada noqulay his etishiga sabab bo'lganligini ko'rsatadi. Quyi ko'rsatkichlar esa ona tomonidan bolaning omadsizligini tasodifiy emas deb hisoblashi, unga ishonishi farzandining oilada o'zini qulay tutishi mumkinligini ifoda etadi.

⁸ Завгородняя Т.В. Влияние детско-родительских отношений на особенности взаимодействия детей старшего дошкольного возраста со сверстниками: результаты эмпирического исследования. / Вестник Челябинского государственного педагогического университета. 2018. – №1. – С.204-213.

Yakuniy qism. Yuqorida keltirilgan statistik natijalarga asoslanib, shuni aytish mumkinki, bola shaxsidagi hissiy-emotsional sohaning rivojlanishi ham ota, ham onalarning bola bilan oʻzaro munosabatiga koʻp jihatdan bogʻliq ekan.

Xususan, bolaning oʻzini oilada qulay his etishi xavotir, oiladagi kelishmovchilik, oilaviy vaziyatda mukammal emaslik, oilaviy munosabatlarda adovat kabilarning susayishiga, noqulay his etishi esa bu xususiyatlarning ortishiga sabab boʻlar ekan.

Otalarning oilada farzandi bilan oʻzaro hamkorlik darajasi bolaning oʻziga ishonch yoki ishonchsizligini yuzaga keltirishi mumkin.

Onalarning qattiqqoʻlligi boladagi xavotir bilan, kichik omadsizday munosabati esa bolaning oilada

oʻzini qulay his etishi bilan salbiy bogʻliqlikka ega ekan.

Demak, maktabgacha tarbiya yoshidagi bola shaxsi shakllanishi, bolaning oilada oʻzini adekvat munosabatda tutishi, xulq-atvor va hissiy-emotsional xususiyatlarining tarkib topishida oiladagi ota-onaning unga munosabati muhim ahamiyatga ega ekanligi oʻz isbotini topdi.

Bu dalillarga asoslanib ota-onalarga farzandlari bilan toʻgʻri munosabatda boʻlish, zarurat boʻlganda qoʻllab-quvvatlash, nazoratni meʼyorida saqlash, bola shaxsini, his-tuygʻulari, fikri va orzularini hurmat qilish, kuchi va imkoniyatlariga, qobiliyatiga ishonishlarini tavsiya etamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Варга А.Я. Структура и типы родительского отношения: дисс. ... канд. психол. наук. — Москва, 1986. — 206 с.
2. Василенко В.Е. Проявления кризиса трёх лет в связи с особенностями родительского отношения к ребёнку (кросскультурный аспект). Вестник Санкт-Петербургского ГУ., Сер. 12. 2013. Вып. 3. — С.42-51.
3. Галасюк И.Н., Митина О.В. Модификация опросника родительского отношения (А.Я. Варги, В.В. Столина) для семьи, воспитывающей особого ребенка. Клиническая и специальная психология, 2017. Том 6. — № 2. — С. 109-129.
4. Завгородняя Т.В. Влияние детско-родительских отношений на особенности взаимодействия детей старшего дошкольного возраста со сверстниками: результаты эмпирического исследования. / Вестник Челябинского государственного педагогического университета. 2018. —№1., — С. 204-213.
5. Илларионова И.В. Исследование проявлений тревожности у детей дошкольного возраста в аспекте детско-родительских отношений. Вестник Челябинск ГПУ им. И. Я. Яковлева. 2011, — № 3 (71). Ч. 2, — С.100-107.
6. Суннатова Р.И., Иргашева Н.Г., Таджиева С.Х. Бола тараққиётини психологик таъхис қилиш. — Москва — Тошкент: ИТД “СМИ-АЗИЯ” — “San’at” журнали нашриёти, 2008. —156 б.
7. Nay I. Family Ralationships and Delinquent Behavior. — NewYork: Wiley, 1958. — 168 p.